



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FARG'ONA VODIYSI QAZUVCHI ARILARINING (SPHECIDAE) TUR TARKIBI VA TAKSONOMIK TAHLILI

Qodirov I.T

Namangan davlat pedagogika institute

@osudaxonyusuffjonovagmail.com

Annotation. *This study is dedicated to investigating the taxonomic composition of digger wasps belonging to the family Sphecidae found in various geographical regions of the Fergana Valley. During the research, a total of 8 genera and 26 species belonging to the subfamilies Ammophilinae, Sphecinae, and Sceliphrinae were identified.*

Kirish.

Qazuvchi arilar Apoidae katta oilasiga mansub bo'lib, dunyo bo'yicha qazuvchi arilar oilalarining 4 ta oila, 276 ta avlod 9889 ta turlari mavjud (Belokobylskij, 2017). Hanson va Menke tomonidan taklif etilgan tasnifga ko'ra, 2025 yil may oyiga ko'ra qazuvchi arilar katta oilasiga dunyo bo'yicha 10 229 tur kiradi, ulardan 804 turi esa Sphecidae oilasiga mansub ekani ma'lumotlarda qayd etilgan (Hanson, Menke, 2006).

Sphecidae oilasiga oid ilk tadqiqot ishlari E.A. Eversmanga tegishli bo'lib, Volga-Ural daryosi havzasi va hozirgi Qozog'iston Respublikasi hududlariga to'g'ri keladi. Ushbu hududlarda Hymenoptera turkumi vakillari bilan bir qatorda sfetsid arilarning tarqalishi haqida ma'lumotlar keltirilgan (Eversmann, 1849).

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, Farg'ona vodiysida qazuvchi arilarning (Sphecidae) tur tarkibini aniqlash va toksonomik tahlil qilishdan iborat.

Material va metodika

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish uchun 2023-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining Farg'ona vodiysi (Farg'ona, Andijon, Namangan) viloyatlari va tumanlarining turli geografik hududlaridan yilning bahor, yoz va kuz fasillarida Sphecidae oilasiga mansub 892 dan ortiq namunalari yig'ilib, o'rganildi (1-rasm).



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Eremochares Gribodo 1882 avlodi

6. Eremochares dives (Brullé 1833)

Podalonia Fernald, 1927 avlodi

7. Podalonia affinis (W.Kirby, 1798)

8. Podalonia fera (Lepeletier 1845)

9. Podalonia hirsuta (Scopoli, 1763)

10. Podalonia luffii (E.Saunders, 1903)

11. Podalonia tydei (Le Guillou, 1841)

12. Podalonia ebenina (Spinola, 1839)

Sceliphrinae (Ashmead, 1899) kenja oilasi

Chalybion Dahlbom 1843 avlodi

13. Chalybion turanicum (Gussakovskij, 1935)

14. Chalybion femoratum (Fabricius, 1781)

Sceliphron Klug, 1801 avlodi

15. Sceliphron madraspatanum (Fabricius, 1781)

16. Sceliphron deforme F. Smith, 1856

17. Sceliphron destillatorium (Illiger, 1807)

Palmodes Kohl, 1890 avlodi

18. Palmodes occitanicus (Lepeletier de Saint Fargeau & Audinet-Serville, 1828)

19. Palmodes melanarius (Mocsáry, 1883)

Sphecinae Latreille, 1802 kenja oila

Prionyx Vander Linden, 1827 avlodi

20. Prionyx lividocinctus (A.Costa, 1861)

21. Prionyx nudatus (Kohl, 1885)

22. Prionyx viduatus (Christ, 1791)

Sphex linnaeus, 1758 avlodi

23. Sphex flavipennis Fabricius, 1793

24. Sphex pruinosis Germar, 1817

25. Sphex leuconotus Brullé, 1833

26. Sphex funerarius Gussakovskij, 1934

Farg'ona vodiysining turli geografik hududlaridan yig'ilgan Sphecidae oilasiga mansub turlar quydagicha taksonomik guruhlarga taqsimlanadi.

Tadqiqiot hududida Ammophilinae kenja oilasiga mansub 3 ta avlodning turlari qayd qilindi. Xususan Podalonia avlodiga mansub turlar (P. affinis, P. fera, P. hirsuta, P. luffi, P. tydei, P. ebenina) nisbatan ko'proq uchraydi, jami 6 ta tur aniqlandi, Ularning faunada ulushi 23,04% ni tashkil etdi. Ammophila avlodiga mansub, 5 ta tur (A. campestris, A. heydeni, A. sabulosa, A. hungarica, A. gracillima) aniqlanib, ularning faunadagi ulushi jami yig'ilgan turlarning 19,2% ini tashkil qildi. Mazkur kenja oilaning Eremochares avlodiga mansub 1 ta turi qayd qilinib faunadagi ulushi 3,8% ni tashkil etadi.



Sphecinae kenja oilasiga mansub 3 ta avlod turlari qayd qilindi. Jumladan Spheex avlodiga mansub 4 ta tur (*S. flavipennis*, *S. funerarius*, *S. pruinosus*, *S. leuconotus*) qayd qilinib ularning ulushi 15,36% ni tashkil etdi. Prionyx avlodiga mansub 3 ta tur (*P. nudatus*, *P. lividocinctus*, *P. viduatus*), aniqlandi va ular 11,52% ni, Palmodes avlodiga mansub 2 ta tur, (*P. melanarius*, *P. occitanicus*), aniqlanib, ularning faunadagi ulushi 7,6% ni tashkil qildi.

Farg'ona vodiysi qazuvchi arilarning Sceliphrinae kenja oilasiga mansub 2 ta avlodning 5 ta turi qayd qilindi. Xususan Chalybion avlodiga mansub, 2 ta tur (*Ch. turanicum*, *Ch. femoratum*) aniqlanib, ular Sphecidae oilasi faunasining 7,6% ini, Sceliphron avlodiga esa 3 ta turi (*S. destillatorium*, *S. madraspatanum*, *S. deforme*) tegishli bo'lib, faunaning 11,52% ni tashkil qiladi.

Xulosa

Farg'ona vodiysida qazuvchi arilar - Sphecidae oilasi vakillari uchta kenja oilaga (*Ammophilinae*, *Sphecinae*, *Sceliphrinae*) 26 ta tur aniqlanib, *Ammophilinae* kenja oilasi, 3 ta avlod, 12 ta tur, *Sphecinae* kenja oilasi, 3 ta avlod, 9 ta tur, *Sceliphrinae* kenja oilasi esa 2 ta avlod, 5 ta turni tashkil qildi. Sphecidae oilasiga mansub qazuvchi arilarning turlari Farg'ona vodiysi bo'ylab yuqori xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu ma'lumotlar vodiyning iqlimiy va ekologik xilma-xilligini aks ettirib, entomofaunaning boyligi va biologik xilma-xilligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belokobylskij S.A., Leleya A.S. Annotirovanny katalog pereponchatokrylykh nasekomykh Rossii // Trudy Zoologicheskogo instituta RAN, Prilozheniye, 2017. – №6. – 212-216 c.
2. Hanson, P.E., Menke A.S. Capitulo 17. Las avispa apoideas: Ampulicidae, Sphecidae, Crabronidae // Memoirs of the American Entomological Institute, 2006. 77: – P. 694-733.
3. Eversmann E. Fauna hymenopterologica Volgo-Uralensis // Fam. III. Sphegidae Latr. Bull. Soc. imp. natur. Mosc., 1849. – №22(4). – P. 359-436.
4. Казенас В.Л. Роющие осы (Hymenoptera, Sphecidae) Юго-восточного Казахстана // Тр. ВЭО, 1972. – С. 93-533.
5. Данилов Ю.Н. К познанию роющих ос трибы Prionychini Bohart et Menke, 1963 (Hymenoptera, Sphecidae) России и сопредельных стран // Труды Русского энтомологического общества. – Санкт – Петербург, 2012. Т. 83 (1). – С. 159-165.